



Institute for Macroeconomic
and Regional Studies

O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya: tendensiyalar va asosiy yo'nalishlar

Dekabr 2025



O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya: tendensiyalar va asosiy yo'nalishlar

Tadqiqot maqsadi va ma'lumotlar manbai

Mazkur tahlil O'zbekistonda moliyaviy inklyuziya va aholining moliyaviy xulq-atvoridagi tarkibiy o'zgarishlarni baholashga qaratilgan bo'lib, jamg'armalarni saqlash shakllari, bank xizmatlaridan foydalanish darajasi va raqamli moliyaviy vositalarning kundalik hayotga kirib borishi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladi.

Tahlilda Jahon bankining 2018-yil sentyabridan 2025-yil iyun oyigacha amalga oshirilgan "O'zbekiston fuqarolarining fikrini o'rganish so'rovi" (Listening to the Citizens of Uzbekistan – L2CU) ma'lumotlaridan foydalanilgan [2]. So'rov har oyda 1500 ta atrofida uy xo'jaligidan olingan (jami 121 618 ta kuzatuv) ijtimoiy va iqtisodiy ma'lumotlarni o'z ichiga qamrab oladi.

Ma'lumot uchun: Jahon banki tomonidan o'tkazilgan ushbu so'rov qariyb 80 ta savoldan iborat bo'lib, aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati va turmush darajasi bo'yicha ishonchli ma'lumotlarni to'plashga qaratilgan. So'rov natijalari kambag'allikni qisqartirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi davlat siyosatini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega.



Institute for Macroeconomic
and Regional Studies

Kirish

Moliyaviy inklyuziya - bank va moliyaviy xizmatlardan teng va barqaror foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va zarur infratuzilmani yaratish orqali aholining iqtisodiy faolligini oshirish, jamg'arma va investitsiya jarayonlarini rivojlantirish hamda inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishishni ta'minlovchi muhim jarayon [1].

2024-yil holatiga dunyo aholisining 79 foizida o'zining bank hisob raqamiga ega. Jumladan, 2021-2024 yillar oralig'ida moliyaviy hisobga ega aholi soni 5 foiz bandga, o'rta va past daromadli mamlakatlarda esa 6 foiz bandga oshgan [2].

Global Findex (2025) hisobotiga ko'ra, 2024-yilda o'rta va past daromadli mamlakatlarda aholining 40 foizi (2021-yilga nisbatan 16 foiz o'sish) o'z mablag'larini bank va moliyaviy tashkilotlarda saqlagan. Bunda erkaklar ulushi nisbatan ko'proq, aniqrog'i 44 foiz, ayollar ulushi esa 36 foiz. Qolaversa, ushbu mamlakatlarda aholining 61 foizi (yoki moliyaviy hisobga ega aholining 82 foizi) 2024-yilda bank kartasiga mablag' tushganini ta'kidlagan [2].

Jamg'armalarni saqlash shakli: naqd puldan diversifikatsiya tomon

2018-2025 yillarda jamg'armalarni saqlashda naqd puldan bank va investitsiya vositalariga o'tish sezilarli darajada oshdi.

2018-yilda respondentlarning 97,7 foizi o'z mablag'larini naqd pul ko'rinishida, uyda saqlashni afzal ko'rishlarini bildirgan


bo'lsalar, 2025-yilda ushbu ko'rsatkich 92,7 foizgacha qisqargan. 2018-2025 yillar mobaynida bank hisobvaraqlaridan foydalanish 4,2 foiz bandga va muddatli depozitlar shaklida saqlash 3 foiz bandga oshgan bo'lib, respondentlar ulushi mos ravishda 6 va 3 barobarga oshgan. Bu esa aholining moliyaviy savodxonligi ortib borayotganligini va bank tizimi xizmatlariga ishonchi mustahkamlanayotganligini anglatadi (1-rasmga qarang).

Ma'lumot uchun: 2025-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, muddatli depozitlar hajmi 211,3 trln. so'mni tashkil qilgan va 2020-yilning mos davriga nisbatan 4,7 barobarga oshgan [3].


2018-yilda investitsiyalar orqali jamg'arma saqlashni afzal ko'radiganlar ulushi 0,5 foiz atrofida bo'lgan. Bu davrda investitsiya bozorlari va moliyaviy instrumentlar aholining keng qatlamlari uchun yetarlicha tushunarli yoki qulay bo'lmagan. Fond bozori faoliyatining jonlanishi, raqamli moliyaviy platformalarning paydo bo'lishi va investitsiya haqidagi axborotning ko'payishi natijasida, 2022-yildan boshlab investitsion jamg'armani afzal ko'ruvchilar ulushi sekin, ammo barqaror o'sishni boshlagan. Ushbu o'sish 2024-yilda ham davom etib, jamg'armalarini investitsiya shaklida saqlayotganini ta'kidlagan respondentlar ulushi 8 foizgacha yetgan. Garchi bu ko'rsatkich hali ham umumiy jamg'arma tuzilmasida katta ulushni egallamasa-da, bu aholi orasida kapitalni ko'paytirishga qaratilgan strategiyalarga qiziqish ortayotganini ko'rsatadi.

1-rasm. Jamg'armalarni naqd va naqd bo'lmagan ko'rinishda saqlash (foiz hisobida)


Naqd pul ko'rinishida saqlash



Bank hisobvaraqlarida saqlash



Muddatli depositlar shaklida saqlash



* f.b. — foiz band

Manba: Jahon bankining O'zbekiston fuqarolarining fikrini o'rganish so'rovi (L2CU) ma'lumotlari.

Bank kartalari: egalik, foydalanish va infratuzilma

So'nggi 5 yilda bank kartalarining sezilarli darajada ommalashuvi va ularni moliyaviy operatsiyalarda faol ishlatilishi aholining moliyaviy xizmatlardan foydalanish darajasining oshganini ko'rsatadi.

Moliyaviy inkluziyaning yana bir muhim ko'rsatkichlaridan biri bu aholining bank kartalariga egalik darajasidir. Plastik kartalar nafaqat naqd pulsiz hisob-kitoblarni amalga oshirish vositasi, balki bank tizimi va jamg'arma mexanizmlariga kirish, ijtimoiy to'lovlarni olish hamda raqamli moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkonini beruvchi muhim moliyaviy vosita hisoblanadi.

Ma'lumot uchun: 2024 yilda dunyo aholisining ijtimoiy to'lov oluvchi qatlamining 73 foizi hamda ish haqi oluvchi qatlamining 45 foizi to'lovlarni bank kartalari orqali olgan [2].


So'rovnoma natijalariga ko'ra, 2021-yilda 41 foiz uy xo'jaliklarining bank kartasi bo'lmagan bo'lsa, 2025-yilga kelib plastik kartalar ijtimoiy nafaqalar, davlat to'lovlari, ish haqlari, pul o'tkazmalari uchun asosiy kanalga aylanib, bu ko'rsatkich 15 foizgacha qisqardi. Jumladan, 2021-yil II choragida so'rovda qatnashgan uy xo'jaliklarining 57 foizi bank kartasiga ega ekanligini bildirgan bo'lsa, 2025-yilning II choragiga kelib ularning ulushi 85 foiz atrofida shakllandi. Ushbu davrda (2021–2025) savdo va xizmat ko'rsatish nuqtalarida terminal infratuzilmasining yaxshilanishi, UzCard va Humo tizimlarining kengayishi, shuningdek ish haqi va pensiya to'lovlarining bosqichma-bosqich bank kartalariga o'tkazilishi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirib, bank kartalarining ommalashuvi va moliyaviy inkluziya darajasining sezilarli oshishiga olib keldi (2-rasmga qarang).

Ma'lumot uchun: 2020-yil 1-yanvar holatiga ko'ra muomalaga chiqarilgan bank plastik kartalari soni 20,5 milliontani tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yil 1-oktyabr holatiga ko'ra, 63,3 milliontaga yetgan (3,1 barobarga oshgan) [4].

Bank kartalarining mavjudligi bilan birga ulardan faol moliyaviy vosita sifatida foydalanilayotganini baholash, bank kartalarining real hayotdagi funktsionalligini va bank tizimiga aholining integratsiyalashuv darajasini tahlil qilish imkonini beradi. Bunda quyidagi 2 ta asosiy ko'rsatkichdan foydalaniladi:

- so'nggi 30 kun ichida bank kartasiga mablag' tushganligi;
- so'nggi 30 kun ichida bank kartasi orqali xarid amalga oshirilganligi.

2-rasm. Bank kartalaridan foydalanish (egalik) darajasi (foiz hisobida)



* f.b. — foiz band

Manba: Jahon bankining O'zbekiston fuqarolarining fikrini o'rganish so'rovi (L2CU) ma'lumotlari.

2021-yildan 2025-yilga qadar bo'lgan davrda respondentlarning kamida 92 foizi (92–98 foiz oralig'ida) so'nggi 30 kunda bank kartasiga mablag' tushganini va respondentlarning kamida 91 foiz (91–98 foiz oralig'ida) qismi bank kartasi orqali xarid qilganini ta'kidlagan.

Qolaversa, 2021-yil may oyida respondentlarning qariyb 81 foizi so'nggi 30 kun ichida bank kartasi orqali bankomatdan naqd pul olganini bildirgan bo'lsa, 2025-yilning birinchi yarmida ushbu ulush 95 foizga yetgan, ya'ni bankomatlardan foydalanish darajasi sezilarli darajada kengaygan (3-rasmga qarang).

Ma'lumot uchun: Mamlakatda o'rnatilgan bankomat va infokiosklar soni 2025-yilning 1-oktyabr holatiga 38,1 mingtani tashkil etmoqda (2020 yilning mos davrida 11,4 mingta)[4].


Naqd pulsiz hisob-kitoblar: qonunchilikdagi o'zgarish va jamoatchilik fikri

Aholi orasida elektron tranzaksiyalarni ommalashtirish ko'proq qabul qilinmoqda.

2025-yilning 12-dekabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish va yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" farmoni qabul qilindi [5]. Farmonda naqdsiz hisob-kitoblarni ommalashtirish hamda biznes yuritishda raqobat muhitini yanada rivojlantirish, mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishning samarali mexanizmlarini joriy etish hamda biznesni soyadan chiqarishni rag'batlantirish maqsad qilingan bo'lib, 2030-yilgacha:

- yalpi ichki mahsulotga nisbatan kuzatilmaydigan iqtisodiyot ulushini 1,3 baravarga qisqartirish;
- savdo va xizmat ko'rsatish sohalarida

3-rasm. Bank kartalaridan foydalanish ulushlari (foiz hisobida)



Manba: Jahon bankining O'zbekiston fuqarolarining fikrini o'rganish so'rovi (L2CU) ma'lumotlari.

aholi tomonidan to'lovlarni naqd pulsiz amalga oshirish ulushini 75 foizga yetkazish;

c) iqtisodiyotning rasmiy sektorida band aholining jami iqtisodiy faol aholiga nisbatan ulushini 64 foizga yetkazish;

d) Iqtisodiy erkinlik indeksi va Korrupsiyani idrok qilish indeksida O'zbekiston Respublikasining o'rnini kamida 30 pog'onaga ko'tarilishiga erishish asosiy maqsadli ko'rsatkichlar etib belgilangan.

So'rovnoma ma'lumotlari asosida respondentlarning elektron shaklda moliyaviy tranzaksiyalardan foydalanishga bo'lgan munosabati o'rganildi. Bu raqamli to'lovlarga o'tish bo'yicha jamoatchilik munosabatini baholash imkonini beradi.

Tahlil natijasi, respondentlar orasida moliyaviy tranzaksiyalarning elektron shaklda bo'lishini qo'llab-quvvatlash darajasi 2021-yilda 78 foizdan 2025-yilning birinchi yarmida 89 foizga yetganini ko'rsatmoqda. Bu elektron tranzaksiyalarni ommalashtirish jamoatchilik orasida ko'proq qabul qilinayotganini anglatadi.

Ma'lumot uchun: 2020-yil oktyabr oyida masofaviy bank xizmatlaridan foydalanuvchi yuridik shaxslar soni 691 ming nafarni, jismoniy shaxslar 9,4 mln. nafarni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilning oktyabr oyiga kelib ularning soni mos ravishda 1,6 mln va 72,4 mln nafarga yetgan [6].

Xulosa

Tahlil natijalari O'zbekistonda moliyaviy xizmatlardan foydalanish doirasi va shakllari sezilarli darajada kengayayotganini ko'rsatadi. Aholining moliyaviy faoliyati asta-sekin naqd pulga tayanishdan rasmiy va raqamli mexanizmlarga o'tmoqda. Bank kartalari va elektron to'lovlar kundalik iqtisodiy munosabatlarning ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Bu jarayon infratuzilmaviy rivojlanish va davlat siyosati bilan qo'llab-quvvatlanmoqda. Natijada iqtisodiyotda shaffoflik kuchayib, inklyuziv o'sish uchun qulay sharoit yaratilayapti.

Umida Yakubjanova,
MHTI yetakchi mutaxassisi

Ilhom Ikromov,
MHTI bosh mutaxassisi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- [1] Murthy, Gayatri, et al. *FINTECHS and FINANCIAL INCLUSION Looking Past the Hype and Exploring Their Potential*. 2019.
- [2] Klapper, Leora, Dorothe Singer, Laura Starita, and Alexandra Norris. 2025. *The Global Findex Database 2025: Connectivity and Financial Inclusion in the Digital Economy*. Washington, DC: World Bank EBooks. World Bank Group. <https://doi.org/10.1596/978-1-4648-2204-9>.
- [3] World Bank. Uzbekistan - Listening to the Citizens of Uzbekistan 2018-2025. Ref: UZB_2018-2025_L2CU_v03_M. Dataset downloaded from <http://www.microdata.worldbank.org/> on 02.10.2025
- [4] https://cbu.uz/uz/statistics/buleten/?arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_1=&arFilter_DATE_ACTIVE_FROM_2=&arFilter_ff%5BSECTION_ID%5D=3666&year=2025&month=12&set_filter=&set_filter=Y
- [5] <https://lex.uz/docs/-7897630>
- [6] <https://cbu.uz/en/statistics/paysistem/2941883/>